ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

BO‘LAJAK XONANDALARNI SAHNA NUTQIGA TAYYORLAShNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

R.Musaboyev, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san'ati instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak xonandalarni sahna nutqiga tayyorlashning spesifik xususiyatlari o‘rganilgan. Unda қўшиқчилик санъатида sahna нутқига хос masalalar yoritilган.

Kalit so‘zlar: notiqlik, qo‘shiqchilik san’ati, ta'sirchan nutq, sahna nutqi, adabiy nutq me'yorlari, sahna nutqi, sahna nutqini rivojlantirish

Аннотация. В статье рассматриваются особенности подготовки будущих певцов к сценической речи. Освещены вопросы, характерные для сценической речи в певческом искусстве.

Ключевые слова: ораторское искусство, певческое искусство, действенная речь, сценическая речь, нормы литературной речи, сценическая речь, развитие сценической речи.

Abstract. The article examines the specifics of preparing future singers for stage speech. The issues characteristic of stage speech in the art of singing are covered.

Key words: oratory, singing art, effective speech, stage speech, norms of literary speech, stage speech, development of stage speech**.**

Sharq mutafakkirlari, so‘z va nutqning inson hayotidagi o‘rni, vazni va qadr-qimmatiga katta ahamiyat berganlar. Ular har bir so‘zning nutkda o‘z o‘rni va ahamiyati borligini, nutqni qudratli qiluvchi so‘zdan kuchliroq va buyukroq narsa yo‘qligini, tilga e'tibor – elga e'tibor ekanligini, so‘z sehri ila odamzod mo‘'jizalar yarata olishini doimo ta'kidlab, isbotlab kelganlar. So‘z orqali nutq va fikr oydinlashadi.

O‘tmishda notiqlik san'ati va unga yakin sohalar bilan shug‘ullanuvchilarni “nadimlar, qissaguylar, masalguylar, badixago‘ylar, qiroatxonlar, muammogo‘ylar, voizlar, go‘yandalar, maddohlar, qasidaxonlar” deb yuritilgan. Masalan, go‘yandalar xalq marosimlarida qo‘shiq kuylashgan, marhum yoki tantana egalariga izzat-hurmat bildirishgan. Tinglovchilarning hissiyotlariga so‘z kuchi bilan ta'sir ko‘rsatishgan. To‘y, shodiyona va sayl-tomoshalarda qissago‘ylar yakka yoki teatrlashtirilgan ansaml tarkbida qo‘shiq kuylab, saroyanda (ashulachi) va navozanda (cholg‘uchi) lar qo‘shiq so‘zlari va ohangi orqali xalq qalbiga yo‘l topishgan. Kishilarni so‘zning qudratini anglashga, undan ta'sirlanishiga sababchi bo‘lishgan. Ular o‘z faoltyatlari bilan qo‘shiqchilik san'atini ham yuksaltirishgan. Demak, sahna nutqi qo‘shiqchilik san'atida ham mavjud bo‘lgan.

Sahna nutqi nima?- tinglovchi va tomoshabinlarga muayyan badiiy asar (novella, kinofilm, mumtoz qo‘shiqlar)ning sahna asari asosida aktyor, boshlovchi, qo‘shiqchi ijrosida taqdim etishda qo‘llaniladigan chiroyli, ta'sirchan, badiiy yetuk nutq asari sahna nutqi sanaladi. “Sahna nutqi texnikasi talaffuz, tovushni boshqarish va intonatsiya san'atida iborat bo‘lib, bu komplnentlar adabiy nutq me'yorlariga muvofiq ishlatilishi zarur[1]**.** Sahna nutqining ravon va aniq bo‘lishi sahna asarlari

[1] Karimov, M. (2010). Sahna nutqi asoslari. Toshkent: San’at nashriyoti, 58-bet.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

mazmunini tez anglashga, tasvirlanadigan voqea-hodisa va hissiyotlar chizig‘ini to‘liq anglashga, mohiyatiga yetib borishga yordam beradi.

Qo‘shiqchilik san'ati tarbiya vositasi sifatida badiiy so‘z san'atining ajralmas qismi bo‘lib, so‘z va musiqa yordamida tinglovchining dunyoqarashi va hissiyotiga kuchli ta'sir ko‘rsatadi. Demak, qo‘shiqchilik san'atini so‘z san'atidan ajratib tasavvur qila olmaymiz. Tohir Malik “behayo va bema'ni qo‘shiqlarda so‘zni o‘rinsiz ishlatish” masalasiga to‘xtalib, “bema'ni qo‘shiqlar selini to‘suvchi to‘g‘on buzib tashlangan... Qo‘shiq san'atidagi nafislik, latiflik bo‘g‘ilib, o‘lim talvasasida yotibdi” deya ta'kidlaydi[2]. Til jamiyatda nihoyatda yuksak mavqega ega, u o‘zaro aloqa vositasidir. So‘zga chechanlik yohud go‘zal nutq egasi bo‘lish inson aqliy kamoloti, fazli, uddaburonligi, ishbilarmonligini ko‘rsatuvchi asosiy xususiyatlardandir. Shu sababli adib inson nutqi uning tafakkuri, aqliy xususiyatlari bilan bog‘liqligini ta'sirli ifodalab, “Oqil odamning tili hamisha fikrining izmida. Telba – nodonda esa buning aksi” deb yozadi.

Qo‘shikchi ijodida so‘z ustida ishlashga qaratilgan muammoli masalalar serqirra xususiyatga ega bo‘lib, qo‘shiqchilik san'ati sahna nutqi ustida tinimsiz ishlashni talab etadi. Bu, birinchi navbatda, nutq texnikasi – ovoz, nafas, talaffuz, orfoepiya va so‘z ustida ishlashni qamrab oladi.

Sahna nutqi – qo‘shiqchilik mahoratining ajralmas qismidir. Sahnaviy nutqda noaniqlik, bo‘shliq, nuqsonlarning bo‘lishi mumkin emas. Qo‘shiqchi nutqi ravon, jarangdor, silliq, nuqsonsiz bo‘lishi, adabiy til me'yorlariga mos bo‘lishi zarur. Adabiy til нима? - Adabiy til xalq tilining mukammallashgan, rasmiy, me’yorlashtirilgan shaklidir.

O‘zbekiston milliy entsiklopediyasida adabiy tilga quyidagicha ta'rif beriladi: “Adabiy til — muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy extiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. «Qayta ishlangan» tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda Adabiy til o‘zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqning adabiy tili turli davrda turlicha bo‘lgan (mas, qadimgi turkiy adabiy til, hoz. o‘zbek adabiy tili). Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili adabiy til vazifasini o‘tagan. Macalan, fors va turkiylar uchun mumtoz arab tili, yaponlar uchun mumtoz xitoy tili; ba'zi Yevropa xalqlari uchun lotin tili adabiy til bo‘lgan”[3]. U o‘zining grammatik, fonetik va leksik jihatlari bilan boshqa til shakllaridan, хусусан, шевалардан ajralib turadi.

Адабий тил кўп қиррали хусусияталарга эга. Бу муносабат аввало тил фаолиятининг кўп қиррали ва кўп жиҳатли экани билан белгиланади.

Adabiy til me’yorlari deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Fonetik me’yorlar – so‘zlarning talaffuzdagi aniqlik va ohangdorligi. Masalan, “qayerga” o‘rniga “qa’rg’a” deyish talaffuz xatosidir.
2. Grammatik me’yorlar – so‘zlarning adabiy nutq talablariga muvofiq talaffuz etilishi, nutq kontekstida kelishik qo‘shimchalarining to‘g‘ri qo‘llaninlishi.
3. Leksik me’yorlar – so‘zlarning adabiy kontekstda ishlatilishi. Masalan, “bormoqchimisiz?” o‘rniga “bormaymisan?” kabi shevaga xos shakllar sahna nutqida nojoiz.

[2] Тоҳир Малик. Тилингни авайла – омондир бошинг / “Даракчи” газетаси, 06.09.07., 37-39-бетлар.
[3] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. А ҳарфи - Qomus info

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024


THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

“Adabiy til me’yorlariga rioya qilish milliy madaniyatning yuksalishiga va uning dunyo miqyosidagi obro‘sini oshirishga xizmat qiladi.”[4]

San'atshunos L.Xo‘jayevaning fikricha, “nutq madaniyati - fikr madaniyati» bo‘lib, fikrlar aniq ifodalangan, grammatik to‘g‘ri tuzilgan, mantiqqa ega, badiiy ifodalarga boy nutqnigina madaniy deb atash mumkin”[5].

Har qanday nutqqa uning iste'molga yaroqliligini belgilashda muayyan talablar qo‘yiladi (rasm)



1-расм. Нутққа қўйиладиган асосий талаблар.

Sahna nutqi lug‘aviy boylik, talaffuz, ohangdorlik, intonatsiya va ritmik uyg‘unlikni o‘z ichiga oladi. Bu jihatlar adabiy til asosida to‘g‘ri shakllansa, sahna нутқи жозибадор ва samarali бўлади. “Adabiy tilning sahna san’atida qo‘llanilishi faqat estetik jihatdan emas, balki milliy qadriyatlarning targ‘iboti uchun ham muhim ahamiyatga ega”. Sahna san’ati madaniyatning muhim qismi hisoblanadi va unda adabiy til me’yorlariga qat’iy rioya qilish talabi qo‘yiladi. Sahna nutqini adabiylashtirish quyidagi sabablar tufayli zarur:

1. Tinglovchilarning keng doirasiga mo‘ljallanganligi: Sahna nutqi har qanday auditoriya uchun tushunarli bo‘lishi lozim.

2. San’atning estetik qadrini saqlash: To‘g‘ri talaffuz va me’yoriy til nutqning estetik jihatdan yuksak bo‘lishini ta’minlaydi.

3. Milliy tilning rivoji va obro‘sini mustahkamlash: Adabiy til san’atkorlar tomonidan faol qo‘llanilsa, til madaniyati ham yuqori darajada rivojlanadi.

Bo‘lajak xonandalarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish, ularda xonandalik mahoratini rivojlantirish – ularda sahna nutqini rivojlantirish bilan bog‘liq muhim masala bo‘lib, bu milliy

[4] Abdullayev, A. (2002). O‘zbek adabiy tili me’yorlari. Toshkent: Fan nashriyoti, 34-bet.

[5] Арипова А. Нотиклик нуткининг лисоний-услубий воситалари. Филол.фан.номз.дис. - Тошкент, 2002.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

musiqa san'ati oliygohlari oldida turgan zarur vazifalardan biridir. Albatta, ushbu vazifaga atroflicha yondashish, uning didaktik va pedagogik omillarini chuqur o‘rganish va takomillashtirish zarur.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. A harfi - Qomus info
2. Нурмуҳамедова Ў. Саҳна нутқи (Қўғирчоқ театри актёрлиги ва режиссерлиги талабалри учун ўқув қўлланма). – Т.: Ўзбекистон давлат санъат институти босмахонаси, 2008. – 161 б.
3. Abdullayev, A. (2002). O‘zbek adabiy tili me’yorlari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2010. - 34-bet.
4. Арипова А. Нотиклик нуткининг лисоний-услубий воситалари. Филол.фан.номз.дис. - Тошкент, 2002.
5. Karimov, M. (2010). Sahna nutqi asoslari. Toshkent: San’at nashriyoti, 2010. – 210 б.
6. Тоҳир Малик. Тилингни авайла – омондир бошинг / “Даракчи” газетаси, 06.09.07., 37-39-бетлар.